

**IBN SINO MA'NAVIY MEROSIDA AXLOQ MASALASI VA UNING
BADIY OBRAZLARDAGI TALQINI**

Tursunova Dilnura Akram qizi

*1-son Davolash ishi fakulteti 5-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Maxmudova Aziza Nugmanovna
professor, Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi
mudiri Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

Annotatsiya: Ibn Sino, o'z asarlarida axloqiy tamoyillarni, insonning ma'naviy rivojlanishi va fazilatlarining ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikrlariga ko'ra, axloq inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, shaxsning ichki dunyosini va tashqi munosabatlarini belgilaydi. Shuningdek, Ibn Sinoning badiiy obrazlar orqali axloqiy g'oyalarni ifodalash usullari ham o'r ganiladi. U shaxsiy fazilatlar, adolat, sabr-toqat va mehr-oqibat kabi tushunchalarni badiiy asarlarda qanday aks ettirganligi misollar bilan ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, axloq, ma'naviyat, badiy obrazlar, adolat, zamonaviy ahamiyat, ijtimoiy muammolar.

Аннотация: В своих произведениях Ибн Сина подчеркивал важность нравственных принципов, духовного развития и качеств человека. Согласно его взглядам, мораль является неотъемлемой частью человеческой жизни, определяющей внутренний мир и внешние отношения человека. Также изучаются способы выражения Ибн Синой нравственных идей посредством художественных образов. Приводятся примеры того, как он отражал в художественных произведениях такие понятия, как личные качества, справедливость, терпение и доброта.

Ключевые слова: Ибн Сина, мораль, духовность, художественные образы, справедливость, современное значение, социальные проблемы.

Abstract: In his works, Ibn Sina emphasized the importance of moral principles, the spiritual development and qualities of a person. According to his views, morality is an integral part of human life, determining the inner world and external relations of a person. Also, Ibn Sina's methods of expressing moral ideas through artistic images are studied. Examples are shown of how he reflected such concepts as personal qualities, justice, patience and kindness in artistic works.

Key words: Ibn Sina, morality, spirituality, artistic images, justice, modern significance, social problems.

"Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va fuqarolik

jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz. Bu jihatdan ayniqsa, madaniy taraqqiyotga ulkan hissa qo'sha olgan buyuk shaxslarning ma'naviy dunyosi, fikriy intilishi, maqsadini to'g'ri talqin etish muhim rol o'ynaydi. Chunki ular ijodida ma'lum bir davrning yutug'i, o'sha zamon fikru zikri o'z ifodasini topgan bo'ladi. Aytish kerakki, "Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql – idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblar ko'p bo'lgan. Darhaqiqat, Forobiy, Ibn Sinolardek buyuk siymolarimiz bor ekan, biz faxrlanamiz, g'urulanamiz, ularga yetolmasakda ulardek bo'lishga intilamiz. Milliy ma'naviyatimizning tarixi shunday ulug'verki, hozirgacha maqtanishga arzigudek shaxslar bor. Shunday shaxslardan biri bo'lgan alloma, faylasuf va hakim Ibn Sinodir. Ibn Sinoning "Baxtsaodat" va "Farovonlik" to'g'risidagi falsafiy qarashlari obyektiv ochib berildi. Mantiqiylik tamoyilida esa, aql va ruhning qiyosiy tahlili, hamda baxtsaodat masalasida aqlning yuqori o'rinda ekanligi tadqiq qilindi. Tizimlilik, Inson hayoti davomida baxtsaodat uchun intilib yashashi va unga erishishda duch keladigan muammolarni yechishi tizimlilik metodi sifatida talqin etildi. Hay ibn Yaqzon" qissasini Ibn Sino 1023-yili Hamadonga yaqin bo'lgan Faradjon qal'asi qamoqxonasida yozgan degan ma'lumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Qissa arab tilida yozilgan. Ivrit (qadimgi yahudiy) tiliga qissaning she'riy tarjimasini Ibn Azra (1186-yilda vafot etgan), nasriy tarjimasini 1886-yilda P.D.Kaufman amalga oshirgan. Insonning tabiatiga xos bo'lgan ijobiy va salbiy jihatlarning ta'rifiga katta o'rin berilgan, qissaning o'zi esa, umuman insonning ma'naviy qiyofasiga, intizomiga, uni noma'qul qilmishlarga ergashishdan qaytarishga bag'ishlangan. "Hay ibn Yaqzon" asarini tushunish o'rta davr faylasuflarining kosmogoniya, ma'naviyat va hayot haqidagi fikrlarini bilishga bog'liq ekanligi, bu masalalar haqida qisqacha ma'lumot berish zarur ekanligi asoslangan. Birodarlarim, "mening "Hay ibn Yaqzon"l qissasini yozishimga bo'lgan qiziqishim nihoyat mening yurak tublarimni zabit etdi va buni sizlarga yetkazish uchun sizlarni takliflaringizni inobatga oldim". Ba'zi narsalarni rad etib Allohga tavakkal qildim.

Qissadagi barcha qahramonlar ma'lum ramziy siymolarni gavdalantiradi: "yosh yigit bilan birga G'arbdan sharqqa sayohat qilayotgan qariya siyoshi – faoliyat ko'rsatayotgan ong ramzidir. G'arb deganda moddiy olam, ya'ni inson tanasi, sharq deganda – insonning ruhiy olami, ya'ni inson idroki tushuniladi. Idrok insonni yaramas kirdikorlardan ogohlilikka chaqiradi, mantiq ilmini o'rganishga undaydi. Qissa mantiqni – farosat (ya'ni fiziognomika) deb yuritilgan." "Inson fe'l-atvoridagi

qiziqqonlik, munofiqlik, ta'magirlilik, zulmkorlikka, o'g'rilik va aldamchilikka moyillik, o'zining hayu-havaslarini qondirish istagi, ehtiroslarga berilish, hayvoniy hirslar – bularning barchasini Ibn Sino buzuq niyatli “do'stlar” deb atagan. Ibn Sino inson o'zining “jilovini” mana shunday “do'stlar”ning qo'liga topshirib qo'ymasligi kerakligi haqida ogohlantiradi. Ibn Sino bu asarida ilm-ma'rifatni o'rganishga kirishgani tufayli ko'zi ochilgani, natijada Aql (Hayy ibn Yaqzon) ko'ziga ko'ringani va ilm unga o'z jamolini namoyon etganini hikoya qilar ekan, ilm-aqlni o'lim bilmaydigan uyg'oq, qarimaydigan yosh, beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lida aqlni ishga solib, farosatli bo'lib, o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi. Demak, “Hay ibn Yaqzon” mantiq ilmiga bag'ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulishi, o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir. Ibn Sinoning bu xildagi asarlaridan axloqiy ramzlar purma'no aks etishini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotimizning obyekti hisoblangan “Hay ibn Yaqzon” (“Uyg'oq o'g'li Tirik”) qissasining mohiyatida cheksiz aql aks etadi. “Ibn Sino kishi qalbida bo'lishi mumkin bo'lgan mana shunday xislatlarni “Hayy ibn Yaqzon” asarida ramziy ishoralar bilan bayon qiladi, yaxshi-yomon xulq, fe'l-atvorlarni iborali tarzda “kishi oshnalari” tariqasida talqin qiladi. Bu oshnalarning ba'zisi ko'p nomaqbul yo'llarga boshlaydi, inson ana shu yo'llarga kirishdan o'zini ehtiyyot qilishi lozimligini uqtiradi”. Bu qissada naql etilishicha, hikoya qiluvchi shaxs bog'da o'rtoqlari bilan sayr qilib yurganida qarshisida kelayotgan bir nuroniy qariyaga duch keladi. U bilan tanishgusi kelib qariyaga yaqinlashgach, chol yigitdan oldin unga salom beradi. Yigit choldan otini so'rasha, nomim Hayy- Tirik, otamning ismi Yaqzon – Uyg'oq, vatanim – Baytul Muqaddas, hunarim – dunyoni sayohat qilish, deydi. Keyin chol dunyoni sayohat qilganini: ko'rgan-bilganini yigitga so'zlab beradi. Ibn Sino mazkur nuroniy chol misolida aqlni ko'rsatmoqchi bo'ladi hamda bu aql dunyoda kezib yuradi va har bir dargohga kira oladi, deydi. Chol yigitni o'z orqasidan yurishga da'vat qiladi. Bundan olimning kishilarni ilm ketidan borishga da'vat qilgani anglashiladi. Qissadagi “Aql– Uyg'oq o'g'li Tirik odamlarni kishilarning fe'l-atvorini, tabiatini chuqurroq tushunish uchun farosat ilmi– mantiqni bilishga da'vat etadi. Negaki, bu ilm, Ibn Sino iborasi bilan aytganda, foydasi naqd ilmlardan bo'lib, kishining didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi, bilgan-bilmaganlarini ko'z o'ngiga keltirib, uni tartibga solidi”.

Ibn Sino badiiy obrazlarni yaratishda axloqiy g'oyalarni aks ettirishga intilgan. Uning asarlarida insonning ichki kurashi, axloqiy tanlovlari va ijtimoiy mas'uliyatlari muhim o'rinni tutadi. Masalan, "Tibbiyot qanoti" asarida Ibn Sino insonning ruhiy holatini tahlil qilib, yaxshi axloqning sog'liq uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. Badiiy

obrazlar orqali u insonning ma’naviy rivojlanishini va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini tasvirlaydi. Ibn Sino axloqi zamonaviy jamiyatda ham dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda ijtimoiy muammolar, ahloqiy inqirozlar va insonlar o’rtasidagi aloqalar masalalari doimo dolzarb bo’lib qolmoqda. Ibn Sino g’oyalari zamonaviy axloqiy muammolarni hal etishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin. Uning axloqiy tamoyillari —adolat, mehr-oqibat va sabr-toqat — hozirgi kunda har bir inson uchun muhim qadriyatlар hisobланади. Ibn Sino ma’naviy merosida axloq masalasi va uning badiiy obrazlardagi talqini inson hayotining turli jabhalarini qamrab oladi. Uning axloqiy g’oyalari nafaqat o’z davrida, balki zamonaviy jamiyatda ham ahamiyatini yo'qotmaydi. Ibn Sinoning merosi bizga insoniyatning ma’naviy rivojlanishi va axloqiy qadriyatlarni saqlashda muhim yo'l-yo'riqlar beradi. Shunday qilib, Ibn Sino asarlaridagi axloq masalalari badiiy obrazlar orqali ifodalangan g’oyalar bilan birgalikda, bizning hayotimizda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Jurayev, S. S. O. G. L. (2023). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA “INOYAT” (العنایة) TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI. International Scientific Journal of Biruni, 2(1), 43-47.
2. Jurayev, S. S. O. G. L. (2022). ABU ALI IBN SINONING INSON VA UNING MA’NAVIY KAMOLOT MASALASIGA MUNOSABATI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue .902-908 ,)23
3. Jumayev G.I. “Audiomanuscript” – a project on the study of oriental manuscript sources. // Journal of Social Research in Uzbekistan, 2023. P. 50-52.